

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

**PEDAGOGIK OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA TA’LIM JARAYONINI
TASHKIL ETISHDA AMALIYOT BILAN UZVIYLIGINI TA’MINLASH
MASALALARI**

**Respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya
2024-yil, 15-oktyabr**

**Republic-wide scientific and scientific-technical conference
ISSUES OF ENSURING INTEGRATION WITH PRACTICE IN
ORGANIZING THE EDUCATIONAL PROCESS IN INSTITUTIONS OF
PEDAGOGICAL HIGHER EDUCATION
October 15, 2024**

**Республиканскую научно-техническую конференцию на тему
«РОЛЬ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ОРГАНИЗАЦИИ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА
ВЗАИМОСВЯЗИ С ПРАКТИКОЙ В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВЫСШИХ
УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ»,
которая состоится 15 октября 2024 года**

JIZZAX – 2024

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi T.: 2023.04.30
2. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev 2020.03.02
3. Karimov, I. A. (2015). O'zbekistonning iqtisodiy siyosati va ijtimoiy rivojlanishi. Toshkent: O'zbekiston Fanlar Akademiyasi.
4. Yuldoshev, A. (2019). "Jizzax viloyatidagi ta'lim tizimining rivojlanish yo'nalishlari." Ilmiy jurnali, 3(2), 45-58.
5. Xolmurodov, S. (2020). Mahalla institutining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi o'рни. Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyoti.
6. Bekmurodov, O. (2022). "Oliy ta'lim va mahalla: hamkorlikni rivojlantirish yo'llari." Mahalliy boshqaruv va ta'lim 7(1), 19-34.
7. www.stat.uz
8. www.ziyounet.uz
9. www.uz.uz

BOSHQARUV TIZIMIDA AYOLLARNING INTELLEKTUAL SALOHIYATINI OSHIRISH

Mavlanova Nargiza Eshquzievna

Ijtimoiy himoya milliy agentligining

Jizzax viloyati boshqarmasi boshlig'i, tadqiqotchi.

nargizamavlanova@mail.ru

Annotatsiya:

Mazkur maqolada mamlakatimizda boshqaruv tizimida ayollarning intellektual faoliyati, ularning boshqaruv tizimlaridagi mehnatini tashkil etishning o'ziga xosligi, ayollarning boshqaruvdagi ishtirokining o'ziga xos farqli xususiyatlari o'rganilgan va amaliy tavsiyalar taklif qilingan.

Kalit so'zlar: ayollar mehnati, intellektual salohiyat, demografi, , gender tengligi, turmush sifati, mehnat talablari.

Annotatsiya:

Mazkur maqolada mamlakatimizda boshqaruv tizimida ayollarning intellektual faoliyati, ularning boshqaruv tizimlaridagi mehnatini tashkil etishning o'ziga xosligi, jumladan, ayollarga g'amxo'rlik ko'rsatish, ish bilan bandligini ta'minlashda gender munosabatlari bo'yicha muvofiqlashtirilgan ishlarni amalga oshirish, ayollarning boshqaruvdagi ishtirokining o'ziga xos farqli xususiyatlari o'rganilgan va amaliy tavsiyalar taklif qilingan.

Kalit so'zlar: boshqaruv, ayollarning ijtimoiy mehnati, boshqaruvda ishtirok, gender tengligi, ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlar, ayollarning mavqeini oshirish, mehnat talablari.

Jahonda barcha darajadagi boshqaruv tizimida xotin-qizlar faolligini oshirish, ularning ijtimoiy faolligini ta'minlashning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari masalalari hozirgi innovatsion, raqamli texnologiyalar davrida eng muhim dolzarb muammolardan biriga aylandi. Xotin-qizlarning ish bilan bandligi darajasi global miqyosda kamayish tendensiyasiga ega. Jahon miqyosida ayollarning mehnat bozoriga kirish imkoniyatlari erkaklarnikidan 27 foizga past. Ayollar erkaklarga nisbatan ko'proq ishsiz bo'lib, global ishsizlik erkaklar uchun 5,5 foizga, ayollar uchun 6,2 foizga teng [<http://www.oecd.org>].

Yangi O'zbekistonda ayollarga g'amxo'rlik ko'rsatish, ularning bandligini ta'minlash bo'yicha muvofiqlashtirilgan ishlarni amalga oshirish, ayollar mehnatini tashkil etishda gender tengligi konsepsiyasiga asoslanib bandlik dasturlarini ishlab chiqishga zamonaviy yondashuvlarni kengaytirish kabi masalalarga alohida e'tibor berilmoqda. Mehnat resurslarining salmoqli qismini tashkil qilgan, ko'p qirrali kasbiy tajribasi va ma'lumot darajasi yuqori, uy xo'jaligini yuritish

bo'yicha malakaga ega, oila va bolalar tarbiyasiga mas'ul bo'lgan ayollar iqtisodiyot, ta'lim va madaniyat rivojiga muhim hissa qo'shadilar.

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida ayollarning boshqaruvdagi ishtiroki, boshqaruv blogi, haq to'lanmaydigan va norasmiy mehnat bilan bandlik, oila va farzandlar tarbiyasidagi o'rni, mehnat munosabatlarida gender tengligi, ularni ijtimoiy himoyalash, moddiy yordamlar hamda ishga joylashishdagi o'zaro bog'liqlik boshqaruvdagi o'ziga xoslik borasidagi tizimini tashkil qilish mazkur muammoni o'rganishning dolzarbligini yanada oshiradi.

“2022-2026-yillarga muljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan taraqqiyot strategiyasining 69-maqsadida belgilab berilganidek, “Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash” vazifasi belgilangan bo'lib, quyidagilarni amalga oshirish ko'zda tutilgan: jamiyatda xotin-qizlarga tazyiq va zo'ravonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, gender tenglikni ta'minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni qo'llab-quvvatlashga doir islohotlarni amalga oshirish, xotin-qizlarning ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish [“2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” gi PF-60 Farmon].

Iqtisodchi olimlardan professor D.N.Raximovanning fikricha “Mehnat bozorida iqtisodiy faol ayollarning bandlik darajasini hisoblash, asosiy ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarni yanada to'liqroq va tabaqalashgan holda tahlil etish, mehnat salohiyatidan foydalanishni tartibga solish imkoniyatini beradi” [D.N.Raximova, 2000: 143]. J.X.Bobanazarova esa “Mehnat bozori tartibga solish ayol ishchi kuchining ijtimoiy-ruhiy, iqtisodiy-moliyaviy, tashkiliy, demografik tavsiyalarini hisobga oluvchi faoliyat sohalariga yo'naltirish bilan belgilanadi. Mazkur vazifalar oilaviy yumushlar, farzandlar tarbiyasi, kasbiy malaka darajasi, ijtimoiy inrfratuzilma sohalarining rivojlanishi va demografik o'ziga xoslik natijasida kelib chiquvchi bir qator muammolar, ularning yechimi bevosita ayollar mehnat bozorini tartibga solish ustuvorliklari, boshqaruv, tashkiliy, moddiy rag'batlantirishlar har tomonlama islohotlarni amalga oshirishga tayanadi” deb hisoblaydi [J.X.Bobanazarova, 2019: 30].

Shu o'rinda intellektual mehnat ongli, maqsadga yo'naltirilgan foydali, kreativlik, ijodkorlik elementlari bilan boyitilgan, insonning rivojlanishiga va tabiat resurslarini moddiy va nomoddiy boyliklarga aylantiradigan, axborotlarni yaratish, qayta ishlash va o'zgartirish bilan bog'liq insonni ijtimoiy foydali faoliyati hisoblanadi.

Ma'lumki, innovatsion iqtisodiyotda salohiyatni faol turdagi takror ishlab chiqarish manbasiga aylantirish imkonini belgilaydigan omillardan biri mehnatga layoqatli ayollarni ish bilan ta'minlashning yangi zamonaviy shakllariga yo'naltirish va tartibga solish alohida o'rin egallaydi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida ayollarning intellektual mehnatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar mehnat talablari mohiyatiga qarab quyidagicha guruhlandi (1- rasm).

Ayollar mehnatining ijtimoiy talablari

- 1.Oilaviy yumushlari va farzandlar tarbiyasi bilan birgalikda qo'shib olib borish.
- 2.Oila a'zolarining nisbatan kamroq qo'llab-quvvatlanishi va ish vaqti chegaralanmasligi.
- 3.Bajariladigan kasblarning murakkabligi, innovatsiyalarning qo'llanishi.
- 4.Ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarni imtiyozli uy-joylar bilan ta'minlash.
- 5.Kasbiy malaka darajasini oshirib borishga talab va yuqori intensivlik.

Mehnat resurslarining iqtisodiy talablari

- 1.Yangi ish joylarini yaratish va o'z-o'zini band qilishning ko'payishi.
- 2.Xotin-qizlarga yangi ish o'rinlarini tashkil etish uchun kafolatli mahalliy va xorijiy investitsiyalarni joriy qilish.
- 3.Kasbiy malaka va ma'lumot darajasini olish uchun imkoniyatlarning yaratilganligi.
- 4.Mehnat bozori talablari bo'yicha mutaxassislarining taqsimlanishi.

5. Ichki va tashqi mobillikning yuqori darajasi.

Demografik talablari

1. Ayollar orasida reproduktiv yoshdagilar va tug'ilish darajasining yuqoriligi.
2. Oilaviy ahvol, mehnat qilishga xohishning yo'qligi.
3. Ayollarning ijtimoiy holati va oilaviy majburiyatlar.
4. Karerani rivojlantirishda ayollarga yaratilgan imkoniyatlar.
5. Yangi shakldagi ish bilan bandlikning kengayishi va mehnatning intellektuallashishi.

Ayollar mehnatining ijtimoiy talablari	1. Oilaviy yumushlari va farzandlar tarbiyasi bilan birgalikda qo'shib olib borish. 2. Oila a'zolarining nisbatan kamroq qo'llab-quvvatlanishi va ish vaqti chegaralanmasligi. 3. Bajariladigan kasblarning murakkabligi, innovatsiyalarning qo'llanishi. 4. Ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarni imtiyozli uy-joylar bilan ta'minlash. 5. Kasbiy malaka darajasini oshirib borishga talab va yuqori intensivlik.
Mehnat resurslarining iqtisodiy talablari	1. Yangi ish joylarini yaratish va o'z-o'zini band qilishning ko'payishi. 2. Xotin-qizlarga yangi ish o'rinlarini tashkil etish uchun kafolatli mahalliy va xorijiy investitsiyalarni joriy qilish. 3. Kasbiy malaka va ma'lumot darajasini olish uchun imkoniyatlarning yaratilganligi. 4. Mehnat bozori talablari bo'yicha mutaxassislarning taqsimlanishi. 5. Ichki va tashqi mobillikning yuqori darajasi.
Demografik talablari	1. Ayollar orasida reproduktiv yoshdagilar va tug'ilish darajasining yuqoriligi. 2. Oilaviy ahvol, mehnat qilishga xohishning yo'qligi. 3. Ayollarning ijtimoiy holati va oilaviy majburiyatlar. 4. Karerani rivojlantirishda ayollarga yaratilgan imkoniyatlar. 5. Yangi shakldagi ish bilan bandlikning kengayishi va mehnatning intellektuallashishi.

1-rasm. Ayollarni ish bilan ta'minlashga ta'sir ko'rsatuvchi mehnat talablari

Olib borilgan tadqiqotlarga asosan, ayollarni ish bilan ta'minlashga ta'sir ko'rsatuvchi mehnat talablari munosib ish bilan bandlik tizimini shakllantirish, mehnatni tashkil etishning yangicha yondashuvlari asosida ularning turmush sifatini oshirish, ularning mehnatini tashkil etish strategiyasini ishlab chiqish zarur, bu muayyan standart va ko'rsatkichlar asosida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-islohotlarni amalga oshirishning aniq mexanizmlarini qo'llashga asos bo'ladi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bobanazarova J.X. Qishloq joylarida ayollar ish bilan bandligini oshirishning samarali ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari. Fuqarolik jamiyati. –T.: 2019. №4 (60), - 30 b.
2. Raximova D.N. Upravlenie protsessami razvitiya trudovogo potentsiala Uzbekistana v usloviyax osushchestvleniya radikalnykh ryночных reform. Dissertatsiya dok. ekon. nauk. – T.: 2000. -143 s.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga muljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60 Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>
4. <http://www.oecd.org>

O'QITUVCHILARNING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHNING ILMIY KASBIY ASOSLARI

Kushbakov Qahramon Safar o'g'li

Registrator ofisi 1-sektor bosh mutaxassisi, Jizzax DPU

Annotatsiya:

Maqolada kadrlar salohiyati mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun mutaxassislarning kasbiy shakllanishini va ularning kamolotini ta'minlash jamiyat oldidagi eng asosiy muammolardan biri sanaladi. Shu bois Respublikamiz hukumati mustaqillik yillarida mamlakat ravnaqi va kelajagi uchun ta'lim sohasini isloh etishga alohida e'tibor qaratdi. Shu munosabar bilan maqolada o'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlantirishning ilmiy kasbiy asoslari haqida ma'lumotlar joy olgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, kadrlar salohiyati, kasbiy rivojlanish, xalq ta'limi xodimlari, uzluksizlik, uzviylik

Zamonaviy sharoitlarda xalq ta'limi tizimida pedagoglarning intellektual salohiyatini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish, uni amalga oshirishning infratuzilmasini ishlab chiqish davr talabiga aylandi. Bugungi kunda dunyo miqyosida xalq ta'limi xodimlarini intellektual jihatdan rivojlantirishning insonparvarlikka asoslangan ko'p parametrlilik konsepsiyalari ilgari surilmoqda.

Binobarin, bu jarayon amaliyotda o'qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish, innovatsion jarayonlarni kengaytirish, ta'lim xizmatlarini diversifikatsiyalash, sifat menejmentini joriy qilish, kasbiy ehtiyojlarga asoslanish, individual faoliyatni modellashtirish, loyihalashtirish, uzluksizlik, uzviylikni ta'minlovchi ko'p komponentli yondashuvlarni amalga oshirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Texnologiyalarni tanlash prinsiplari, ularga qo'yiladigan talablarga doir dissertatsiya tadqiqotlari va turli ilmiy adabiyotlar tahlili (V.I.Zagvyazinskiy, M.M.Levina, E.S.Polat) hamda boshqa nuqtai nazarlarni o'rganish natijasida tadqiqotimiz doirasida o'qituvchilarni kasbiy rivojlantirishga doir texnologiyalarga qo'yiladigan talablarni umumlashtirdik:⁴³

- ta'limning intensivligi;
- kasbiy faoliyatni modellashtirish imkoniyati;
- mustaqil ravishda qaror qabul qilish imkoniyati;
- o'quv materialining yuqori nazariy darajasi;
- o'qitish sifatini ta'minlash;
- ma'lumotlarni qayta ishlash tezligi;
- o'quv muammolarini har tomonlama hal etish;
- shaxsiy yo'nalish;
- kognitiv rivojlanishda taraqqiyotni ta'minlash;
- o'qituvchining kasbiy faoliyati bilan bog'lash va uning ehtiyojlari, individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini inobatga olish;
- kasbiy faoliyatga va kasbiy rivojlanishga bo'lgan qiziqishni oshirish;
- amaliy yo'nalish;
- o'quv materialining muammoli mohiyati; rivojlantiruvchi xarakterga egaligi;
- kasbiy bilimlarni rivojlantirish; texnologiyalarning bir-biri bilan muvofiqligi.

Insonning tobora o'sib boruvchi ehtiyojlarini qondirish, o'z shaxsini rivojlantirish muammosi ham juda dolzarbdir, kattalar ta'limi esa o'z shaxsini takomillashtirish va o'zligini namoyon qilishga yordam beradi. O'z-o'zini rivojlantirish shaxsning o'zida kasbiy tajriba, malaka va

⁴³ Есенкова Т.Ф. Педагогические технологии в образовании взрослых: методология, содержание, эффективность //Фундаментальные исследования. –2015. –№ 2-7.–С. 1483-1488; [электронный ресурс]. URL: <https://fundamental-research.ru/ru/article/view?id=37178> (дата обращения: 19.03.2022).